XALQ DEPUTATLARI BOYSUN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-yanvar VII-3-6-8-110-K/25 Boysun tumani

Boysun tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2025-yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash to‘g‘risida.

O‘zbekistan Respublikasi Soliq kodeksining 429- va 437-moddalari hamda xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 2025-yil 24-yanvardagi VII-4-10-8-0-K/25-sonli qarorlariga asosan Boysun tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2025-yil uchun yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i T.Sarmanovning bergan hisoboti tinglab, bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, xalq deputatlari tuman Kengashi qaror qiladi.

1. Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 2025-yil 24-yanvardagi VII-4-10-8-0-K/25-sonli qarori hamda tuman soliq inspeksiyasining 2025-yil 27-yanvardagi 21-00768-sonli xati va tumanda yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2025-yil uchun yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i T.Sarmanovning bergan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining moliya-iqtisoliyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i Y.Jo‘rayev, tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i T.Sarmanovga:

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-son “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi PF-6121-son “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosini yuzasidan Boysun tumanida bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yuridik shaxslarning 1 gektar yeri uchun 33 792 000 (o‘ttiz uch million yetti yuz to‘qson ikki ming) so‘m hamda jismoniy shaxslarning 1 kvadrat metr yeri uchun 290,4 (ikki yuz to‘qson so‘m 40 tiyin) so‘m bazaviy soliq stavkalari bo‘yicha taklif kiritilganligi (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun shahar va tumanlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer

solig‘i stavkasiga 0,7 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalarini belgilashi mumkinligi yuzasidan “Boysun” gazetasi va tuman hokimligi axborot xizmati orqali ommaga taqdim etish;

belgilangan yer solig‘i stavkalariga (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, mavze, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llashlari yuzasidan ma’lumotlarni ta’minlab berish;

tuman soliq inspeksiyasi tomonidan budjet daromadlari ko‘rsatkichlarining bajarilishini ta’minlash, soliq bazasini kengaytirish, qo‘shimcha soliq zaxiralarini aniqlash va soliqqa tortish hamda tumanni iqtisodiy salohiyatini oshirish maqsadida zaruriy chora-tadbirlar ko‘rish hamda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan xalq deputatlari Boysun tumani Kengashiga har chorak yakuni bo‘yicha ma’lumot kiritib borish;

xalq deputatlari tuman Kengashlari tomonidan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari uchun keyingi soliq davriga tasdiqlangan soliq stavkalarini besh kun ichida soliq to‘lovchilarga ma’lumot uchun yetkazilishini ta’minlash;

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mavjud yer maydonlari uchun hisoblangan yer soliqlarini o‘z vaqtida va to‘liq to‘lab borishlarini nazoratga olish;

yuridik va jismoniy shaxslarga hisoblangan yer solig‘i va undirilgan soliqlari to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga axborot berib borish vazifasi yuklatilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilangan soliq stavkalari asosida (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari uchun 2025-yilda tuman kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisentlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari, tuman hokimligi axborot xizmati (Y.Xoliyorov), “Boysun” gazetasi tahririyati (D.Oripov)ga mazkur qarorni amalga oshirishdan maqsad va uning tuman iqtisodiyotini yuksaltirishdagi afzalliklari to‘g‘risida ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2024-yil 10-yanvardagi VI-70-1-8-110-K/24-sonli “Boysun tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2024-yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash to‘g‘risida” qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (Q.Alimov) zimmasiga yuklansin.

7. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi



XAITOV BEKMUROT KARIMOVICH

Xalq deputatlari Boysun tumani
Kengashining
2025-yil 30-yanvardagi
VII-3-6-8-110-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Boysun tumani bo‘yicha yuridik va jismoniy shaxslarga 2025-yil uchun belgilangan yer solig‘i bazaviy stavkalariga qo‘llaniladigan KOEFFITSIYENTLAR

T/r	Mahalla fuqarolar yig‘ini nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkasi, 1 ga uchun		Jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi, 1 kv.m uchun	
		Koeffitsent miqdori (0,5 dan 2,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (so‘mda)	Koeffitsent miqdori (0,5 dan 2,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025-yilda (so‘mda)
1.	Ariqusti	0,8	33792000	0,8	290,4
2.	Avlod	0,8	33792000	0,8	290,4
3.	Bibishirin	0,8	33792000	0,8	290,4
4.	Bog‘ibolo	0,8	33792000	0,8	290,4
5.	Boshrabot	0,8	33792000	0,8	290,4
6.	Chilonzor	0,8	33792000	0,8	290,4
7.	Chorchinor	0,8	33792000	0,8	290,4
8.	Dahnaijom	0,8	33792000	0,8	290,4
9.	Darband	0,8	33792000	0,8	290,4
10.	Dashtig‘oz	0,8	33792000	0,8	290,4
11.	Dehibolo	0,8	33792000	0,8	290,4
12.	Duoba	0,8	33792000	0,8	290,4
13.	Gaza	0,8	33792000	0,8	290,4
14.	Inkobod	0,8	33792000	0,8	290,4
15.	Ko‘chkak	0,8	33792000	0,8	290,4
16.	Kofrun	0,8	33792000	0,8	290,4
17.	Kosiblar	0,8	33792000	0,8	290,4
18.	Munchoq	0,8	33792000	0,8	290,4
19.	Mustaqillik	0,8	33792000	0,8	290,4
20.	O‘rmonchi	0,8	33792000	0,8	290,4
21.	O‘rta Machay	0,8	33792000	0,8	290,4
22.	Obi	0,8	33792000	0,8	290,4
23.	Pasurxi	0,8	33792000	0,8	290,4
24.	Poygaboshi	0,8	33792000	0,8	290,4
25.	Pulhokim	0,8	33792000	0,8	290,4

26.	Qizilnavr	0,8	33792000	0,8	290,4
27.	Sariosiyo	0,8	33792000	0,8	290,4
28.	Sayrob	0,8	33792000	0,8	290,4
29.	Shifobuloq	0,8	33792000	0,8	290,4
30.	Shirinobod	0,8	33792000	0,8	290,4
31.	Sho‘rsoy	0,8	33792000	0,8	290,4
32.	Temirdarvoza	0,8	33792000	0,8	290,4
33.	Tillokamar	0,8	33792000	0,8	290,4
34.	To‘da	0,8	33792000	0,8	290,4
35.	Tog‘chi	0,8	33792000	0,8	290,4
36.	Tuzbozor	0,8	33792000	0,8	290,4
37.	Xo‘jabo‘lg‘on	0,8	33792000	0,8	290,4
38.	Xo‘jaidod	0,8	33792000	0,8	290,4
39.	Yuqori Machay	0,8	33792000	0,8	290,4